

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

3-son (4- jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 3 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Hamroyev Asliddin Umed o'g'li*

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI ..... 13-18

*Bazarbayeva Shohsanam Muratovna*

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) ..... 19-23

*Asadova Dilnoza Innatovna*

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI ..... 24-28

*Ҳайитов Умед Яҳёевич*

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ ..... 29-34

*Омонова Сарвиноз Ориф қизи*

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Алимханова Нигора Алимхановна*

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 43-52

*Маҳмудова Дилафруз Hasanovna*

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI ..... 53-60

*Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li*

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ..... 61-69

*Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли*

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

*Паязов Мурод Максудович*

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ ..... 76-86

*Шадибекова Дилдор Абдурахмановна*

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ ..... 87-92

*Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu*

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION ..... 93-99

*Мамажоновна Одинахон Алишер қизи*

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ..... 100-106

*Nozimov Eldor Anvarovich*

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIJIY DAVLATLARNING O'RNI ..... 107-115

*Буранова Жазира Эргаш қизи*

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА ..... 116-120

|   |         |
|---|---------|
| <i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i><br>КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ<br>ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ .....                                       | 121-127 |
| <i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i><br>ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИГИНИ<br>БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ .....                                     | 128-136 |
| <i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i><br>O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI<br>OSHIRISH .....  | 137-145 |
| <i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i><br>OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI<br>INTEGRATSIYASI .....   | 146-150 |
| <i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i><br>TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI .....   | 151-159 |
| <i>Saidov Shohruh Mirzo</i><br>SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION<br>INSTITUTIONS .....   | 160-169 |
| <i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i><br>IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR<br>FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI ..... | 170-177 |
| <i>Inomjon Matkarimov</i><br>AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI<br>TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI .....  | 178-183 |
| <b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>   |         |
| <i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i><br>JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI .....  | 184-189 |
| <i>Masharipova Gularam Kamilovna</i><br>MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A»<br>RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI .....          | 190-198 |
| <i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i><br>ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО-<br>ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ .....                  | 199-206 |
| <i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i><br>TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA<br>MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI .....                         | 207-220 |
| <i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i><br>ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ<br>ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ .....   | 221-227 |
| <i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i><br>BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI .....   | 228-232 |
| <i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i><br>MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH<br>MASALALARI .....   | 233-238 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i><br>YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH<br>KO'NIKMALARI .....   | 239-245 |
| <i>Jabborova Saodat Sattorovna</i><br>MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA<br>XUSUSIYATLARI .....   | 246-252 |
| <i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i><br>O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI .....  | 253-257 |
| <i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i><br>МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В<br>КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ .....   | 258-265 |
| <i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i><br>IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH<br>SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI .....   | 266-270 |
| <i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i><br>NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA<br>ESTETIK OMILLAR .....  | 271-275 |
| <i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i><br>ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ<br>СИФАТИДА .....  | 276-282 |
| <i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i><br>MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA<br>UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....   | 283-287 |
| <i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i><br>SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN<br>EDUCATION .....  | 288-293 |
| <i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i><br>ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В<br>РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....  | 294-302 |
| <i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i><br>SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF<br>EDUCATION .....  | 303-307 |
| <i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi,<br/>Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i><br>МАКТАВГАЧА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA<br>KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI ..... | 308-314 |
| <b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>   |         |
| <i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i><br>ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ<br>КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ .....  | 315-320 |
| <i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i><br>TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA) .....   | 321-327 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i><br>LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....   | 328-334 |
| <i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i><br>SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH .....  | 335-340 |
| <i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i><br>DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR .....  | 341-346 |
| <i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i><br>FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI .....   | 347-351 |
| <i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i><br>KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA .....  | 352-356 |
| <i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i><br>MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI .....  | 357-366 |
| <i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i><br>LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION .....   | 367-370 |
| <i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i><br>TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE .....  | 371-375 |
| <i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i><br>BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI .....   | 376-380 |
| <i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i><br>UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE .....  | 381-386 |
| <i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i><br>TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA .....   | 387-392 |
| <i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i><br>СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ .....   | 393-395 |
| <b>12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР</b>  |         |
| <i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i><br>SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI .....                                 | 396-402 |
| <i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i><br>ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ .....   | 403-409 |
| <i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i><br>ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS ..... | 410-415 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i><br>CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER<br>THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal<br>system) ..... | 416-428 |
| <i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i><br>ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК<br>ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ .....   | 429-438 |
| <i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i><br>ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ<br>ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....  | 439-445 |
| <i>Джалилов Сардор Шавкатович</i><br>ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ<br>КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ .....   | 446-453 |
| <b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>  |         |
| <i>Mirzayev Qodir Toirovich</i><br>ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....   | 454-458 |
| <i>Васильченко Ольга Анатольевна</i><br>ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В<br>УЗБЕКИСТАНЕ .....   | 459-463 |
| <i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i><br>ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА<br>АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ .....                                      | 464-470 |
| <i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i><br>TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK<br>XUSUSIYATLARI .....   | 471-477 |
| <i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i><br>ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI .....  | 478-482 |
| <i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i><br>XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI<br>SIFATIDA .....  | 483-486 |
| <i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i><br>INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY<br>FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI .....  | 487-492 |
| <i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i><br>VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI .....  | 493-497 |
| <i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i><br>O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI<br>TASHKIL ETISH .....  | 498-501 |
| <i>Салимов Ақром Хайитович</i><br>БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА<br>ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ .....  | 502-507 |
| <i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i><br>TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....   | 508-514 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Ли Екатерина Владимировна</i><br>СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ<br>ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....   | 515-523 |
| <i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия<br/>Анваровна</i><br>ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА<br>ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....                 | 524-533 |
| <i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i><br>АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ<br>КЛАССИФИКАЦИЯ .....  | 534-541 |
| <i>Амонов Mirjon Namozovich</i><br>IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI .....  | 542-547 |
| <i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i><br>TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA<br>AHAMIYATI .....  | 548-552 |
| <i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i><br>RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI<br>OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH .....   | 553-560 |
| <i>Xakimova Gulshan Abduxalilovna</i><br>JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI<br>TARBIYALASH .....  | 561-565 |
| <i>Nazarov Rustam Irkinovich</i><br>TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER<br>TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE) .....                                    | 566-570 |
| <i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i><br>CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI<br>RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING<br>AFZALLIKLARI ..... | 571-576 |
| <i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH<br>VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI .....                           | 577-585 |
| <i>Usmonova Matluba Nosirovna</i><br>O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH<br>METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI .....  | 586-590 |
| <i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i><br>MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI<br>VOSITALARI .....   | 591-596 |
| <i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i><br>ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A<br>SCHOLARLY EXAMINATION .....   | 597-603 |
| <i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i><br>INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV<br>KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI<br>LANGUAGE] .....                   | 604-616 |

*Tursunova Shahnoza Bekchanovna*

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING  
O'RNATISH ..... 617-622

*Atoyeva Gulshoda Rabimovna*

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI ..... 623-628

*Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi*

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI ..... 629-635

*Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna*

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS  
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES ..... 636-641

**Xusanov G'olib Elmurodovich**  
SamDChTI, Gumanitar fanlar va axborot  
texnologiyalari kafedrasini tadqiqotchisi

### **O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI**

**Аннотасија.** Mazkur maqolada o'zbek oilasining qadimdan shakllanib kelganligi, uning asrlar davomida milliy qadriyatlarni rivojlantirib, o'ziga xos oilaviy an'analarni falsafiy dunyoqarash negizida bugungi kundacha yetkazib kelganligi ilmiy tadqiq etilgan. Unda aks etgan o'zbek xalqining oilaviy munosabatlari axloqiy tafakkur evolyusiyasida o'zining boy tarixiga egaligi, turli madaniyatlar bilan uyg'un yashab kelganligi ijtimoiy munosabatlar tizimida yoritib berilgan. Bu esa, oilaning muqaddas tushuncha sifatida har bir xalqning hayotida dolzarb ahamiyatga egaligi, ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonchning belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** oila, o'zbek oilasi, milliy qadriyatlar, madaniyat, axloqiy tafakkur, ota-ona, jamiyat, me'yor, an'ana, maqsad, ob'ekt, axloqiy tamoyil.

---

**Khusanov Ghalib Elmurodovich**  
SamDChTI, Researcher of the Department of  
Humanities and Information Technologies

### **ISSUES OF MORAL THINKING IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK FAMILIES**

**Abstract.** In this article, it is scientifically researched that the Uzbek family has been formed since ancient times, that it has developed national values over the centuries, and that its unique family traditions have been delivered on the basis of a philosophical worldview to this day. The family relations of the Uzbek people reflected in it have a rich history in the evolution of moral thinking, and the fact that they have lived harmoniously with different cultures is highlighted in the system of social relations. This shows the importance of the family as a sacred concept in the life of every nation, as a sign of high confidence in the future.

**Key words:** family, Uzbek family, national values, culture, moral thinking, parents, society, norm, tradition, goal, object, moral principle.

---

**Хусанов Галиб Эльмуродович**  
СамДЧТИ, научный сотрудник кафедры  
гуманитарных наук и информационных технологий

### **ПРОБЛЕМЫ НРАВСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ**

**Аннотация.** В данной статье научно исследуется, что узбекская семья формировалась с древнейших времен, что в ней на протяжении веков вырабатывались национальные ценности, а ее уникальные семейные традиции дошли до наших дней на основе философского мировоззрения. . Отраженные в ней семейные отношения узбекского народа имеют богатую историю эволюции нравственного мышления, а в системе общественных отношений подчеркивается то, что они жили в гармонии с разными культурами. Это показывает значение семьи как священного понятия в жизни каждого народа, как признака высокой уверенности в завтрашнем дне.

**Ключевые слова:** семья, узбекская семья, национальные ценности, культура, нравственное мышление, родители, общество, норма, традиция, цель, объект, моральный принцип.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N32>

Oila tushunchasi insoniyat tarixining noyob yutuqlaridan biri sifatida jamiyatning axloqiy tafakkuriga chuqur singib ketgan falsafiy jarayon hisoblanadi. U har bir xalqning kelib chiqish evolyutsiyasi va rivojlanishida avlodlar o'rtasidagi o'zaro davomiylik, uzluksizlikni ta'minlovchi bo'g'in bo'lib, insonlarni ongli ravishda ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga birlashtirib keladi. Oila o'zbek axloqiy tafakkurida azaldan muqaddas sanalib, uni falsafiy tahlil qilish o'ziga xos evolyutsion ko'rinishlarni o'zida mujassam etib keladi. Unda turli madaniyat va dinlar o'zining boy tarixiy qarashlari negizida oila haqidagi tushunchalar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, o'ziga xos axloqiy tafakkurni shakllantirgan. O'zbek xalqi axloqiy tafakkuri evolyutsiyasida oila tushunchasining rivojlanishini o'rganish, uni vaqt o'tishi bilan shakllantirgan asosiy falsafiy, diniy va madaniy ta'sirlarni bugungi voqelikda ko'rish mumkin. "Insoniyat tarixida ilk jamiyat sifatida qaror topgan oila mustahkam bo'lsa bugungi kundagi o'ta murakkab va sertarmoq bo'lgan jamiyat ham mustahkam bo'ladi, jamiyatning mustahkam va insonparvarligi mamlakat va xalq tinchligi, farovonligi barqaror ekanligini ko'rsatadi"[1. 73]. Bunday o'ziga xos birlik dunyo xalqlari qatorida o'zbek xalqi axloqiy tafakkuri evolyutsiyasida ham falsafiy negizlarga ega bo'lib, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni ifodalaydi. Oila jamiyatdagi rishtalar va qadriyatlarning murakkab tomonlarini ochib berishga, ularning muayyan jamiyat asosida o'z ma'naviyati kompassi sifatida boyib borishiga xizmat qiladi. "Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu – oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya – oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi"[2. 72]. Haqiqatdan ham oila butun bir insoniyatni asrlar davomida saqlabgina qolmasdan, ezgu maqsadlarni birlashtirishga, odamlarda kelajakka nisbatan ishonch tuyg'ularining yuksalishiga olib keladi.

O'zbek xalqining o'tmishdagi ko'chmanchi va qabilaviy jamiyatlardan tortib, hozirgi o'troq jamoalargacha bo'lgan tarixiy yo'li oila tushunchasining evolyutsiyasini o'rganish uchun boy zamin yaratadi. Ilk turkiy madaniyatlarda oila jamiyatning bir bo'laki emas, balki yashash, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim institut bo'lgan. Ushbu dastlabki shakllanishlar nafaqat oilaning yadrosini, balki qarindoshlar o'rtasidagi keng o'zaro aloqalarni ham o'z ichiga olgan holda kengaygan. Asosan agrar jamiyatdan sanoatlashgan va urbanizatsiyalashgan jamiyatga o'tish o'zbek oilasi tarkibiga yangi muammolar va dinamikalarini kiritdi. Iqtisodiy bosimlar, migratsiya va globallashtiruvning kuchayib borayotgan ta'siri an'anaviy qadriyatlar va me'yorlarni sinovdan o'tkazdi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, oila o'zgaruvchan sharoitlarga moslashib, axloqiy tarbiya va ijtimoiy birdamlikdagi markaziy rolini saqlab qolgan barqaror institut bo'lib qolmoqda. Uning mustaqil faoliyat olib borishi har bir millatning yashab qolishi, o'zligini namoyon qilishida dolzarb sanaladi.

Qadim zamonlardan beri o'zbek madaniyatida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, avlodlarni birlashtiruvchi, urf-odatlar, bilim va axloqiy qadriyatlarning o'tishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in sifatida qabul qilingan. Uning bu qirralari avlodlar almashinuvida o'ziga xos falsafiy zaminlarga ega bo'lib, turli madaniyatlarning rivojlanishiga olib kelgan. Buning oqibatida insonlar bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda muayyan milliylikni o'zida mujassam etgan oilalarni birlashtirib, an'anaviy jamiyat vujudga kelishiga olib kelgan. An'anaviy

jamiyatda oila a'zolari faqatgina ota-onalar va bolalar bilan cheklanib qolmasdan, balki qarindoshlarning keng doirasini o'z ichiga olgan kichik bir jamiyatni tashkil etgan.

Islomgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo jamiyatlarida, jumladan, hozirgi o'zbeklarning ajdodlari ham ko'p jihatdan ko'chmanchi madaniyatlar, shuningdek, fors va buyuk ipak yo'li sivilizatsiyasi ta'sirida rivojlanib kelgan. Bu davrda oila tushunchasi kengayib, nafaqat yaqin qarindoshlarni, balki kengroq qarindoshlik va qabilaviy aloqalarni ham o'z ichiga olgan. Ushbu kengaygan oila doirasidagi sadoqat, mehmondo'stlik va o'zaro yordam alohida manfaatlardan ko'ra jamoaviy farovonlikni qadrlaydigan axloqiy tizimni aks ettiruvchi mexanizm bo'lgan.

Islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishi o'zbek xalqi axloqiy manzarasiga, jumladan, oila tushunchasiga jiddiy o'zgarishlarga olib kelib, islomiy tushunchalarning shakllanishi bilan oilaviy qadriyatlar mustahkamlandi. Islom ta'limotida oila rishtalari, ota-onaga hurmat, nikohning muqaddasligi muhimligi ta'kidlangan. Oila nafaqat ijtimoiy birlik, balki ma'naviy birlik sifatida ham jamiyatning muhim bo'g'iniga aylandi. Bu yerda halollik, rahm-shafqat, vafodorlik kabi axloqiy qadriyatlar tarbiyalanib, avloddan-avlodga o'tib kela boshladi. Bu davrda meros, nikoh va ijtimoiy xulq-atvor islom huquqshunosligi bilan uyg'unlashgan holda, kengroq jamoat kontekstida shakllandi. Mintaqada islom paydo bo'lishi bilan oila tushunchasi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Islom ta'limoti oila munosabatlariga yangi ko'rinishlar kiritib, oilaning muqaddasligi va uning majburiyatlarini bajarish axloq mezonlariga aylandi. Islom dinining an'anaviy urf-odatlar bilan uyg'unlashuvi natijasida o'zbek oilaviy qadriyatlari va axloqida o'ziga xos sintezga vujudga keldi. Bu esa, din asosida oilani tushunishga, mustahkamlashga va uni qalbdan idrok etishga katta ta'sir ko'rsatdi. Islom kirib kelganidan keyin oilaga muhabbat, hurmat va boshqalarga mas'uliyatli bo'lish kuchaydi. Bu esa, o'zbek xalqining axloqiy me'yorlari va qadriyatlarida o'z izini qoldirib, oilaviy rishtalar va munosabatlarning muhimligini davom ettirdi. Bu davrda an'anaviy qadriyatlarining zamonaviy voqelik bilan uyg'unlashuvi kuzatildi, bunda oila tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bo'lsa ham jamiyatning markaziy tayanchi bo'lib qoldi. Jamiyatda oilani o'rab turgan axloqiy tafakkur an'anaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash va yangi ijtimoiy me'yorlarga moslashish o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib, turli millat va elatlarni bir oila sifatida yashashini ham vujudga keltirdi.

Zamonaviy dunyoda o'zbek madaniyatida oila tushunchasi globallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va madaniy almashinuvlar ta'sirida rivojlanishda davom etmoqda. Shunga qaramay, keksalarni hurmat qilish, qarindoshlarga g'amxo'rlik qilish, mustahkam oilaviy rishtalar kabi an'anaviy qadriyatlar zamonaviy bilimlar bilan boyib, milliy mentalitetning rivojlanishiga olib keldi. Biroq, zamonaviy o'zbeklar oilaviy munosabatlar va turmush tarzining yangi shakllariga ko'proq ochiq bo'lib bormoqda. Bunday jihatlar turli an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bilan zamonaviy innovatsiya o'rtasidagi muvozanat uyg'unligini aks ettiradi. Bunday ijtimoiy holat ko'proq yosh avlodning falsafiy dunyoqarashida vujudga kelayotganligi, milliylik va dunyoviy o'rtasidagi tafovutlarni shakllantirayotganligini ko'rish mumkin. "Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, ularda iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, ta'lim-tarbiya borasida milliy, umuminsoniy, islomiy an'analar va qadriyatlardan keng va unumli foydalanish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kunning asosiy maqsadidir" [3. 144].

Shuning uchun bu axloqiy fazilat va tamoyillarni oilada yoshlikdan farzandlarimiz ongiga singdirib borishimiz darkor.

O'zbek xalqining axloqiy tafakkurida oila tushunchasining evolyutsiyasi an'anaviylik va zamonaviylik, individuallik va jamoaviylik, dunyoviy va diniy qadriyatlarning o'zaro dinamik ta'sirini o'zida aks ettiradi. Bu evolyutsiya ijtimoiy shartnomadan ko'ra ko'proq oilani falsafiy tushunishni dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbek oilasi har bir tarixiy davrning axloqiy qadriyatlarini o'zida milliylikka mos tarzda shakllantirgan axloqiy institutdir. Buni o'zbek xalqining oilaga nisbatan birlamchi ma'naviyat maskani sifatida qaralishida, turli tashqi ta'sirlar va ichki axloqiy muammolardan uni himoyalashi hamda rivojlanib borishida ko'rish mumkin. Oila ijtimoiy va shaxsiy hayotning asosiy tushunchasi sifatida o'zbek xalqning madaniyati va axloqiy g'oyalarida markaziy o'rinni egallaydi. O'zbek xalqi o'zining boy tarixiy merosi va o'ziga xos madaniy an'analari bilan oila tushunchasining rivojlanishini axloqiy tafakkur evolyutsiyasida falsafiy-axloqiy obyekt sifatida qadrlaydi. Shu boisdan o'zbek madaniyatida oila tushunchasi qanday rivojlanganligi va uning zamirida qanday falsafiy-axloqiy tamoyillar yotganini bilish qiyin emas. Har bir davr oralig'ida qadriyatlarning yangicha tushunchalar bilan boyishi, o'zining tub mohiyati va asl maqsadini saqlab qolishi bilan rivojlanishi bugun ham jamiyatning ertangi rivojiga xizmat qilmoqda.

O'zbek xalqida oila tushunchasi o'zaro hurmat, g'amxo'rlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik tamoyillariga bevosita asoslangan. Bu qadriyatlar nafaqat ijtimoiy normalar, balki individual xatti-harakatlar va jamoaviy munosabatlarni boshqaradigan axloqiy imperativlar sifatida ko'riladi. O'zbek xalqida oila jamiyatning mikrokosmosi sifatida qabul qilinadi va bu millatning axloqiy qadriyatlari rivojlanishi sodir bo'ladi. Bunda har bir oila o'z bolalariga o'zbek xalqining axloqiy tafakkurida muhim o'rin tutadigan halollik, insof, saxovatpeshalik, kattalarga hurmat kabi fazilatlarni o'rgatadi. "Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir"[4. 52]. Oilaning muqaddas dargoh sifatida qadrlanishi o'zbeklar hayotida o'ziga xos ma'naviy boylik, ijtimoiy mezon bo'lib sanaladi.

Oilalarning tushunchasining o'zbek xalqi ijtimoiy muhitida rivojlanishini falsafiy tahlili bevosita uning zamirida yotgan chuqur ma'naviy-axloqiy asoslarni aniqlash imkonini beradi. Oila o'zbek xalqida nafaqat ijtimoiy institut, balki ezgulik, halollik, o'zaro yordam kabi axloqiy qadriyatlarning tashuvchisi va posboni sifatida ham qaraladi. "Bugungi globallashuv sharoitida har qanday davlat va jamiyatning asosini tashkil etadigan asl va fundamental qadriyatlarni unutmasligimiz lozim. O'sib kelayotgan avlod aynan oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya oladi, mas'uliyatli bo'lishni va loqayd bo'lmaslikni o'rganadi"[5.331]. Unda oilaviy munosabatlarni shakllantirishda insoniylik falsafasi hal qiluvchi o'rin tutadi. Ushbu konsepsiyada rahm-shafqat, hamdardlik, har bir insonning ichki va tashqi qadr-qimmatini e'zozlash, oilaviy biologik rishtalardan tashqari kengroq ijtimoiy va kommunal mas'uliyatni o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi. O'zbek xalqi hayotida oila evolyutsiyasi keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirib, bu gender tenglikka asoslanishni, ta'lim va tarbiyani birligini ta'minlash imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunday o'zgarishlar oiladagi an'anaviy qadriyatlarni e'zozlash, o'zining har bir a'zosini hurmat qilishni, oilada mas'uliyatni milliy

ruhda uzluksiz his qilib turishni, oilaviy qarorlarni qabul qilishda teng huquqlilikni shakllantirishga olib keladi. Global o'zgarishlar sharoitida oila kelajagi haqida fikr axborot beruvchi zamonaviy o'zbek qadriyatlarini ham inobatga olish zarur. O'zbek xalqining milliy-madaniy merosida oilaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ahamiyati, undagi axloqiy qadriyatlar evolyutsiyasi alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda o'zbek jamiyatida ayrim axloqiy qadriyatlar va normalarning milliylik niqobidan chetga chiqayotganligi, o'z qiyofasini o'zgartirib, yangicha tushunchalar asosida rivojlanayotganligi ham ko'zga tashlanadi. Chunki oilaning rivojlanishi va uning axloqiy tafakkuri evolyutsiyasi bilan bog'liq muammolar, ziddiyatlar va kelajak istiqbollar haqida har bir fuqaro o'zining mas'uliyatini chuqurroq anglashi, oilaviy qadriyatlarni mustahkam bo'lishiga intilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek axloqiy tafakkuri doirasida oila tushunchasining rivojlanishi axloqiy tizimlarning ijtimoiy, siyosiy va diniy manzaralarning o'zgarib turishiga moslashish va chidamlilik xususiyatini ko'rsatadi. O'zbek oilasi jamiyatning mikrokosmosi sifatida odoq-axloq tabiati, an'analarning o'rni va zamonaviylik muammolari haqidagi kengroq falsafiy izlanishlarni aks ettiradi. Bu evolyutsiyani tushunish nafaqat o'zbek ruhiyati haqida tushuncha beradi, balki oila tushunchasiga singib ketgan umuminsoniy qadriyatlarni kengroq muhokama qilishga ham hissa qo'shadi. O'zbek jamiyatida oila tushunchasi o'zgarishlar oqimlari sharoitida oilaviy rishtalar va qadriyatlarning mustahkamligidan dalolat beradi. Unda o'zbek xalqidagi axloqiy tafakkurning falsafiy mohiyati jamlangan bo'lib, ijtimoiy hayotning muhim qirralari, insonparvarlik muhimligi ta'kidlanadi. O'zbek oilasi jamiyatda rivojlanib borar ekan, oiladagi axloqiy tamoyillar yangi voqeliklarga moslashuvchan bo'lishi, o'zining uzluksizligi va hayotiyiligini ta'minlashi muhim falsafiy jarayon sanaladi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Файбуллаев О. Эстетик маданият. –Тошкент: Наврўз, 2020. 73-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. 72-бет.
3. Қодирова З.Р. ва бошқалар. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2006. 144-бет.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. 52-бет.
5. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 331-бет.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).